

**“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI”
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB**

**“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATBning
ESG va barqaror rivojlanish siyosati**

TOSHKENT-2024 yil

MUNDARIJA

I.	Umumiy qoidalar.....
II.	Siyosatning maqsad va vazifalari.....
III.	Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining tamoyillari.....
IV.	ESG va barqaror rivojlanish sohasida boshqarish tizimi va usullari.....
V.	ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi asosiy ishtirokchilar.....
VI.	Atrof-muxit va ijtimoiy risklar hamda ta'sirlarni boshqarish.....
VII.	Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari.....
VIII.	ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi hisobot.....
IX.	Yakuniy qoidalar.....

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “5” martda
593-son bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Kuzatuv kengashining
2024-yil “28” fevraldagi
2024/04-sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning ESG va barqaror rivojlanish siyosati

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu siyosat, ya’ni “ESG va barqaror rivojlanish siyosati” (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning (keyingi o‘rinlarda - Bank) ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (keyingi o‘rinlarda – ESG) va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining tamoyillari va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi.

2. Ushbu siyosatda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Manfaatdor tomonlar – Bankning hamkorlari va kontragentlari, tarmoq va biznes hamkorlari, notijorat tashkilotlar, Bank xodimlari, aholi, Bank bilan o‘zaro hamkorlikdan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslar.

Barqaror rivojlanish sohasida hisobot–Bankning barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining axborotda aks ettirilishi.

ESG va barqaror rivojlanish tamoyillari – atrof muhitni muhofaza qilishga, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan faoliyat tamoyillari.

ESG – Bank faoliyatini amalga oshirishda e’tiborga olinadigan barqaror rivojlanish omillari: atrof muhit (ekologik omillar, shu jumladan iqlim omillari), jamiyat (ijtimoiy omillar) va korporativ boshqaruv (korporativ boshqaruv omillari).

ESG-loyihalar, -mahsulotlar – Barqaror rivojlanish omillarini hisobga oladigan investitsion loyihalar va bank mahsulotlari.

ESG-risklar – ESG va barqaror rivojlanish sohasida risklar (ekologik, shu jumladan iqlim risklari, ijtimoiy risklar va korporativ boshqaruv risklari).

ESMS (Environment and Social Management System) – Ekologik va ijtimoiy menejment tizimi (EIMT)

CCG (Climate Corporate Governance) - Iqlim korporativ boshqaruvi

TCFD (Task Force on Climate Related Financial Disclosures) – Moliyaviy axborotni oshkor etish bo‘yicha maqsadli guruh

BRM – Barqaror rivojlanish maqsadlari

3. Ushbu Siyosat Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasida, shu jumladan quyidagilar bo'yicha Bank pozitsiyasini ifodalash uchun mo'ljallangan hujjat bo'lib hisoblanadi:

Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasida maqsad va vazifalarni belgilash, shuningdek Bankning bu sohadagi faoliyatini tamoyillarini belgilash va tizimlashtirish, ularga tegishli faoliyatning samaradorligini baholash;

Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

ESG va barqaror rivojlanish sohasida asosiy umume'tirof etilgan xalkaro tamoyil va standartlarga rioya qilish;

ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi hisobotning asosiy tamoyillarini belgilash.

4. Ushbu Siyosat O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy va Yer Kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030 yillar uchun O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Nizom, "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish Siyosati hamda xalqaro moliyaviy institutlarining ESG va barqaror rivojlanish sohasida tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

5. Ushbu Siyosat Bankning barcha tarkibiy bo'linmalarida va sho'ba kompaniyalarida ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatini tartibga solishga va unifikatsiyalashga ko'maklashadi.

6. ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi barcha ichki me'yoriy va ma'muriy hujjatlar maqsad va vazifalarga erishishga, shuningdek, ushbu Siyosatda mustahkamlangan ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi tamoyillarni amalga oshirishga qaratilgan.

7. Ushbu Siyosat bilan belgilangan ESG va barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillarini amalga oshirish maqsadida, Bankda ESG va barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha faoliyatni tartibga soluvchi va ushbu Siyosatga zid bo'lmagan ichki me'yoriy va boshqaruv hujjatlarni ishlab chiqiladi.

8. Bankda ushbu Siyosatni rivojlantirish uchun, shuningdek ESG va barqaror rivojlanishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha bank tomonidan ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi va amalga kiritilishi mumkin.

9. Ushbu Siyosat barcha bank shartnomalariga ta'luqlidir.

II. Siyosatning maqsad va vazifalari

10. Bank 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasining "A/RES/70/1" rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan «Barqaror rivojlanish maqsadlari», (keyingi o'rinlarda - BRM) global tashabbusi doirasida O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan majburiyatlariga

muvofiq, iqtisodiyotning barcha sohalari va sektorlari bilan o‘zaro hamkorligi tufayli barqaror rivojlanishga muhim hissasini kiritadi, Bank o‘z rivojlanish strategiyasiga va Ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish Siyosatiga muvofiq holda BRMLar amalga oshirilishiga ko‘maklashadi – qashshoqlikni bartaraf etish (**BRM 1**), yaxshi sog‘liq va farovonlik (**BRM 3**), sifatli ta‘lim (**BRM 4**), gender tenglik (**BRM 5**), toza suv va sanitariya (**BRM 6**), qimmat bo‘lmagan va toza energiya (**BRM 7**), munosib ish va iqtisodiy o‘shish (**BRM 8**), industrializatsiya, innovatsiyalar va infratuzilma (**BRM 9**), notenglik kamayishi (**BRM 10**), barqaror shaharlar va aholi punktlari (**BRM 11**), mas‘uliyatli iste‘mol va ishlab chiqarish (**BRM 12**), iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish (**BRM 13**), barqaror rivojlanish manfaatida hamkorlik qilish (**BRM 17**).

11. Mas‘uliyatli moliya instituti sifatida Bankning uzoq muddatli strategiyasi Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy tamoyillariga, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni, xodimlarning farovonligini ta‘minlash, biznesning axloqiy amaliyoti, shaxsiy daxlsizlik va so‘z erkinligini ta‘minlashga sodiqdir. Bank davlat, hamkorlar, aksiyadorlar va mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajargan holda ochiqlik va halollik tamoyillarini shakllantirishga intiladi.

12. Bank ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy sohalardagi global muammolarni hal qilishga bog‘liq bo‘lgan va ESG transformatsiyasiga asoslangan yangi, yanada barqaror rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o‘tadigan biznesning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

13. Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadi manfaatdorlik, hamkorlikka asoslangan jamiyat uchun samarali va atrof-muhitni muhofaza qiluvchi farovon iqtisodiyotni yaratish uchun milliy darajada ESG sohasida tizimli o‘zgarishlar bo‘yicha yetakchiga aylanishdir va xodimlari, mijozlari, investorlari, aksiyadorlari, hamkorlari uchun mazkur yo‘nalishda shaffoflikni ta‘minlashdir.

14. ESG va barqaror rivojlanishda bank quyidagi vazifalarni bajaradi:

Ekologik xavfsizlik, korporativ boshqaruv va ijtimoiy mas‘uliyat standartlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shuvchi bank sohasida rahbarlik lavozimlarini rivojlantirish.

Bankni ichki bozorda ESG va barqaror rivojlanish tamoyillarini faol amalga oshiruvchi, ushbu sohada konsalting xizmatlarini ko‘rsatuvchi hamda mijozlarni ESG va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishga rag‘batlantiradigan tashkilot sifatida namoyon etish.

O‘zaro hamkorlikning samarali tizimini yaratish va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olish.

Bankning ichki va tashqi omillari hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sirini minimallashtirish.

Past uglerodli iqtisodiyotni shakllantirishda ishtirok etish, «yashil» investitsiyalar kiritish va moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish.

Yashil moliyalashtirish va investitsiya mexanizmlarini, shu jumladan ESG va barqaror rivojlanish formatlarida yashil obligatsiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashish.

ESG-loyihalarni qo‘llab-quvvatlash choralarini takomillashtirish va ESG-risklarni baholash tizimini shakllantirish.

Moliyalashtirish obyektlarining tezkor va muntazam monitoringini olib borish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarining, shu jumladan loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ta’sir qiluvchi ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlarining oldini olish va bartaraf etish.

III. Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasida faoliyatining tamoyillari

15. Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining jamiyatning barqaror rivojlanish sohasidagi ehtiyojlari bilan muvofiqligi.

16. Bank faoliyatining atrof-muhitga, jamiyatga va odamlarga ta’sirini hisobga olish.

17. ESG va barqaror rivojlanish tamoyillarini, yashil moliyalashtirish va investitsiya mexanizmlarini amalga oshirishni rag‘batlantirish va hozirgi va kelajak avlodlarning barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiy sa’i-harakatlarini rag‘batlantirish.

18. Maslahatlashuv jarayonida faol ishtirok etish va jamiyatning barqaror rivojlanishi maqsadlariga erishish uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish. Bank qarorlarini qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlarning fikr va manfaatlarini hisobga olgan holda ochiq va halol tamoyillarida hamkorlik qilish.

19. ESG va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladigan Bankning korporativ madaniyatini shakllantirish.

20. ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi qoidalar, standartlar va majburiyatlariga, shuningdek, Bankning moliyaviy shaffofligi va hisobdorligiga rioya qilish.

21. Bank tomonidan ijro etuvchi organ, uning kuzatuv kengashi, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar yig‘indisi sifatida Korporativ boshqaruv belgilanadi. Shuningdek, bankning tashabbuslari, ushbu maqsadlarga erishish vositalari va faoliyati monitoringini belgilovchi asosni taqdim etadi.

22. ESG va barqarorlik maqsadlariga muvofiq keluvchi risklarni boshqarish uchun Banking barcha tarkibiy bo‘linmalari mas’ul hisoblanadi.

IV. ESG va barqaror rivojlanish sohasida boshqarish tizimi va usullari

23. ESG va barqaror rivojlanish tamoyillariga, yashil moliyalashtirish mexanizmlariga rioya qilish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida, Bankning Kuzatuv kengashi tarkibidagi Risklarni boshqarish va komplayens-nazorati va Strategiya va investitsiyalar bo‘yicha qo‘mitalari faoliyat yuritadi.

24. ESG va barqaror rivojlanish sohasida faoliyatning yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun, Bank Boshqaruvining tarkibida Bank Boshqaruvi Raisining o‘rinbosarlari rahbarligidagi tegishli qo‘mitalar, shuningdek Bankning ekologik, ijtimoiy risklar hamda

korporativ boshqaruv risklarini boshqarish uchun mas'ul departamentlari tarkibidan iborat ishchi guruhi shakllantiriladi.

25. Bank Kuzatuv kengashining ESG va barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq qabul qilingan qarorlari Bankning barcha tarkibiy bo'limlari tomonidan ko'zda tutilgan ESG va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun majburiydir.

26. Bankning mas'ul tarkibiy bo'limlari tomonidan ushbu Siyosatning qoidalari bajarilishi ustidan nazorat qilish departament rahbarlariga va Boshqaruv Raisining o'rinbosarlariga yuklatiladi.

27. ESG va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish uchun kerakli ichki me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi.

V. ESG va barqaror rivojlanish sohasida asosiy ishtirokchilar

28. Ushbu Siyosat qoidalari Bank strategiyasiga muvofiq amalga oshiriladi va Bankning barcha xodimlari uchun majburiydir. Bankning sho'ba korxonalarini ham o'z faoliyatida ushbu Siyosat qoidalari amal qiladilar.

29. Kuzatuv kengashi Risklarni boshqarish va komplayens-nazorati va Strategiya va investitsiyalar bo'yicha qo'mitalari orqali Bankning barqaror rivojlanishi jarayonini nazorat qiladi.

30. Bank Boshqaruvi, Boshqaruv Raisining boshchiligida, ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi ustuvor vazifalarni belgilaydi, Siyosat qoidalari bajarilishini Bankning tegishli bo'linmalariga yuklaydi.

31. Risk menejment departamenti Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (ESMS) uchun va Green Banking departamenti iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, biologik xilmaxillikni saqlash va tabiat resurslarini barqaror boshqarish sohasida TCFD va CCG hisobotlarini amalga oshirish, shuningdek, atrof-muhitga zararni minimallashtirish uchun javobgardir.

32. Green banking Departamenti ESG va barqaror rivojlanish tizimini amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi, yetakchi "yashil" banklarning xalqaro tajribasiga muvofiq tavsiya va takliflarini kiritadi, Green pipeline shakllanishiga ko'maklashadi, shuningdek ESG va barqaror rivojlanish sohasida o'quv seminarlarini tashkil etadi.

33. Bankning Investitsion loyihalarni moliyalashtirish Markazi, Korporativ biznes, Kichik va o'rta biznes hamda Chakana biznes bo'linmalari Green pipelineni shakllantirish uchun va keyinchalik Siyosat doirasidagi yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun mas'ul bo'ladi.

34. Komplayens-nazorat departamenti jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga, firibgarlikka hamda korrupsiyaga qarshi kurashish, sanksiyaviy xatarlarni boshqarish, shuningdek biznes jarayonlar komplayensi yo'nalishlarida, o'zining vakolati doirasida bankning ichki hujjatlarining halqaro standartlarga va milliy qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirilishini boshqaradi.

35. Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga rioya qiladi, u shuningdek gender tengligini va tegishli mehnat sharoitlarini ta‘minlash uchun hamda barcha xodimlarga oid masalalarni hal etish uchun javobgar bo‘ladi.

36. Ma‘muriy-xo‘jalik departamenti Bank ofislaridan foydalanishda energiyani tejash va issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish uchun, yondosh hududlarni ko‘kalamzorlashtirish uchun hamda muqobil energiya manbalarini o‘rnatish va ulardan foydalanish uchun mas‘ul bo‘ladi.

37. Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti xalkaro moliya institutlari va investorlar bilan xamkorlikni yo‘lga ko‘yish, shuningdek Bankning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida kredit liniyalari va obligatsiyalarni shu jumladan “Yashil” obligatsiyalarni jalb qilish uchun mas‘uldir.

38. Yuridik departamentning Metodologiya Boshqarmasi ichki normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun, ESG va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda funksional majburiyatlarning joriy etilishi uchun, shuningdek barqaror rivojlanish bo‘yicha huquqiy hujjatlarga tegishli takliflarini ishlab chiqish uchun mas‘ul bo‘ladi.

39. Ushbu Siyosat moliyaviy tashkilotlar, Bankning hamkorlari va kontragentlari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘ladi.

VI. Ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirlarni boshqarish

40. Ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirlarni boshqarish Bankning Ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish Siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Bundan quyidagilar kelib chiqadi:

41. Ushbu Siyosatning tamoyillarini amalga oshirish maqsadida Bank risklarni baholash va boshqarish bo‘yicha korporativ amaliyotning bir qismi bo‘lgan, Bankda joriy etilgan ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

42. Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar, ularni nafaqat moliyaviy maqsadga muvofiqligidan kelib chiqib, balki ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda, ushbu Siyosat va O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida» Qonuniga muvofiq holda moliyalashtirish imkoniyati to‘g‘risida qaror qabul qilish maqsadida, majburiy tartibda ekologik va ijtimoiy baholashdan o‘tkaziladi.

43. Bankning ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish tartiboti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

mijozlar faoliyatini, uning Bankdagi istisnolar ro‘yxatiga mos kelishi yuzasidan dastlabki tahlil (skrinig) qilish;

qarzdorning loyihasi/faoliyati uchun «O‘zbekiston Respublikasida Davlat ekologik ekspertizasi to‘g‘risida Nizom»ga muvofiq belgilangan I, II, III va IV toifalarni ko‘rib

chiqishni hisobga olgan holda, Xalqaro moliya institutlari(XMI) standartlariga muvofiq holda, obyektlarni ekologik va ijtimoiy risk darajasi bo'yicha toifalashtirish (A, B+, B, C);

qarz oluvchilar faoliyatining amaldagi ekologik va ijtimoiy talablarga muvofiqligini ekologik va ijtimoiy jihatdan baholash, zarur xollarda kredit shartnomasining bir qismi bulgan loyixaga salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarini kamaytirishga qaratilgan tuzatish tadbirlari rejasini ishlab chiqish.

44. Bank portfelini ekologik va ijtimoiy monitoring qilish. Mijozning ekologik va ijtimoiy majburiyatlarga rioya qilishini lozim darajada tekshirish maqsadida, Bank doimiy asosda loyihada o'z moliyaviy ishtiroki saqlanadigan butun davri mobaynida moliyalashtiriladigan loyihalarni monitoring qiladi va o'tkazilgan monitoring natijalarini mijozga taqdim etadi. Bankning joriy etilgan ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish tizimi quyidagilar uchun imkon beradi:

loyihalarni moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish bosqichida ularning ehtimoliy ekologik va ijtimoiy ta'sirini hisobga olish;

atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarning ko'lami va xarakterini hisobga olgan holda loyiha tashabbuskorlariga qo'yiladigan talablarni belgilash, uni amalga oshirish jarayonida talablarga rioya etilishini nazorat qilish;

loyihalarning atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash natijalari bo'yicha, shu jumladan jamoatchilik fikrini hisobga olish talablari bo'yicha chora-tadbirlar rejasini va tavsiyalarni amalga oshirishga hissa qo'shish;

atrof-muhit sifati va aholining turmush sharoiti sezilarli darajada yomonlashishi mumkin bo'lgan jiddiy ekologik va ijtimoiy xavf-xatarli va salbiy ta'sir darajasini qaytarib bo'lmaydigan loyihalarni moliyalashtirishdan chiqarib tashlash;

tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish sifatini ta'minlash va ekologik toza ishlab chiqarishni amalga oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berish;

mazkur Siyosatda nazarda tutilgan talablarni amalga oshirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash;

Bankning «yashil» moliyalashtirish sohasidagi strategik maqsadlarini amalga oshirishga, shuningdek, uning xalqaro moliya institutlari va investorlar o'rtasidagi obro'sini mustahkamlashga hissa qo'shish.

45. O'zbekiston respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi atrof-muxitga ekologik ta'sirni baxolash, ekologik ekspertizalarni o'tkazish va ekologik faoliyatni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasi iqtisodiy rivojlantirish va kambag'allikni qiskartirish vazirligi «yashil» iqtisodiyotni rivojlantirish va «yashil» iqtisodiy o'sish tamoyillarini joriy etish bo'yicha vakolatli davlat organi xisoblanadi.

O'zbekiston respublikasi energetika vazirligi «yashil» energetikani rivojlantirish, xususan qayta tiklanuvchi energiya manbaalari va vodorod energiyasini keng joriy etish,

shuningdek energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning energiya hajmini kamaytirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi.

46. Bankning ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish Siyosati Bank Boshqaruvi tomonidan Kredit qo'mitasi orqali amalga oshiriladi. Siyosatning amalga bajarilishi Risk menejment departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

47. Bankning ushbu Siyosati ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish tizimining ishlashi uchun javobgar bo'lgan ekologik va ijtimoiy sohada tegishli mutaxassislikka ega xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

48. Ushbu Siyosat Bankning barcha tarkibiy bo'linmalariga, shu jumladan filiallarga ham ta'luqlidir. Siyosat qoidalari Bankning butun kredit portfeliga nisbatan qo'llaniladi.

VII. Bankning ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari

49. Bank o'z faoliyatini o'zgartirishga va atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratuvchi samarali boshqaruv tizimiga ega «yashil» bankka aylanishga qaratilgan keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshiradi hamda moliyaviy operatsiyalarning yuqori darajadagi shaffofligini jamiyat, mijozlar va o'z xodimlariga nisbatan ijtimoiy javobgarlikni ta'minlaydi.

50. Bankning moliyaviy xizmatlarini takomillashtirish mijozlarning ishonch darajasini belgilovchi muhim omil bo'lib, uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy barqarorlikka, iqtisodiy o'sishga, samarali rivojlanish va innovatsiyalarga olib keladi. Boshqaruv tizimining muhim maqsadi ishonch bildiruvchining manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, ta'lim darajasi va muzokara o'tkazish imkoniyati hamda xavfsiz mahsulotlardan foydalanilishini ta'minlashdir.

51. Bank ESG va barqaror rivojlanish sohasida quyidagi faoliyat yo'nalishlarini belgilab oladi:

atrof-muhitni muhofaza qilish;

ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlash;

korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish.

52. Bank o'z faoliyatida energiya va resurslarni tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish tendensiyalariga amal qiladi, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga javob beradigan yashil loyihalarni moliyalashtirishga e'tibor qaratadi.

53. Bank doimiy ravishda ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek, ekologik vaziyatni yaxshilashga yordam beruvchi loyihalarni moliyalashtiradi va ishlab chiqishni rag'batlantiradi, jumladan:

energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;

sanoat va boshqa tarmoqlarda atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanadigan va ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo va tegishli

materiallarni chuqur qayta ishlash orqali salbiy ta'sirlarni kamaytiradigan investitsiya loyihalari;

maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash bo'yicha investitsiya loyihalari;

xalqaro standartlar va hisobot tizimlari bo'yicha majburiyatlarga amal qilish, tegishli sanoat va hukumat siyosati tashabbuslarida ishtirok etish past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni ta'minlaydi.

54. Bankning ESG integratsiyasiga innovatsion yondashuvi loyihani moliyalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda muhim ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillari va mulohazalarini hisobga olinishini ta'minlaydi.

55. Iqlim o'zgarishiga e'tiborli bo'lish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ESG va barqaror rivojlanish bo'yicha ilg'or tajribalar orqali investitsiyalarni ko'paytirishga qaratilgan Bankning mas'uliyatli moliyalashtirishga bo'lgan yondashuvining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

56. Bank iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ta'sir va xavflarni tan oladi va global isish oqibatlariga qarshi kurashish uchun investitsiyalarni yanada barqaror qilish va kam uglerodli iqtisodiyotga o'tishni moliyalashtirishga hissa qo'shish majburiyatini oladi.

57. Bank mijozlarga past uglerodli iqtisodiyotga global o'tishda ishtirok etish imkonini beradigan innovatsion va samarali investitsiya yechimlarini topishga intiladi.

58. Bank ESG tamoyillarini amalga oshirish va barqaror rivojlanishni doimiy ravishda takomillashtirishga intiladi. Bank barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda barcha manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishga ochiqlikni ta'minlaydi. Ilg'or tajriba bilan almashish va o'zaro hamkorlikni yaxshilash maqsadida Bank har yili konferensiya va sessiyalar o'tkazadi, unda turli amaliy vaziyatlar, jumladan, ESG va barqaror rivojlanish sohasida muhokamalar o'tkaziladi.

59. Bank ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatga tizimli yondashuvni amalga oshiradi, bu esa ushbu Siyosatda belgilangan yo'nalishlar va maqsadlar tarkibida o'z ifodasini topadi. Yo'nalishlar ESG va barqaror rivojlanishning mavzuli sohalarini aks ettiradi, ular doirasida Bank strategik maqsadlarga erishish va o'z majburiyatlarini bajarish faoliyatini olib boradi.

60. Bank resurslardan foydalanish, energiya, suv va chiqindilardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, Bank binolarining "yashil" standartlarga muvofiqligini ta'minlash orqali atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirishga intiladi.

61. Bank samarali mehnat qilish va inson salohiyatini rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o'sish uchun munosib sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari, Bank mijozlar va hamkorlar o'rtasida munosib mehnat sharoitlari va xodimlar bilan o'zaro rivojlanishi borasida yuqori standartlarni kengayishiga yordam beradi.

62. Bank issiqxona gazlari chiqarilishi, jumladan kredit portfelidagi uglerod ulushini baholash, kamaytirish va qoplash rejalarini amalga oshiradi, shuningdek, past uglerodli

loyihalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishiga moslashish va innovatsion texnologiyalar va loyihalarni joriy etish uchun moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etadi.

63. Bank aksiyadorlar va investorlar oldidagi iqtisodiy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek, o'z mijozlarini moliyalashtirish orqali biznesning uzoq muddatli samarali rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

VIII. ESG va barqaror rivojlanish sohasida hisobdorlik

64. Bank ochiqlik va manfaatdor tomonlarni tijorat va boshqa turdagi sirlarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyati natijalari to'g'risida xabardor qilinishini, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar bank tomonidan tuzilgan shartnomalarga muvofiq maxfiylik talablarini ta'minlanishiga intiladi.

65. Bank manfaatdor tomonlarni xabardor qilish maqsadida, har yili ESG va barqaror rivojlanish sohasida hisobotni tayyorlaydi va nashr etadi hamda ushbu Siyosatga muvofiq ommaviy nomoliyaviy hisobdorlikni rivojlantirish konsepsiyasi talablariga javob beradi.

66. Bank ESG va barqaror rivojlanish sohasidagi faoliyatning turli jihatlari va natijalari bo'yicha monitoring va hisobot berish majburiyatini oladi. Hisobot berish jarayoni xalqaro miqyosda tan olingan hisobot berish qoidalariga muvofiq tuziladi.

67. Bank barcha manfaatdor shaxslarning axborotdan foydalanishini ta'minlash maqsadida Bankning rasmiy veb-saytida hisobotlarni e'lon qiladi.

68. Bank manfaatdor shaxslarning shikoyatlari, da'volari va takliflarini tezkorlik va mas'uliyat bilan ko'rib chiqadi.

IX. Yakuniy qoidalar

69. Mazkur Siyosat Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

70. Siyosatga Kuzatuv kengashi qarori asosida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

71 Mazkur Siyosat talablarini buzish qonunchilikda o'rnatilgan tartibda javobgarlikka olib keladi.

72. Bank xodimlari ushbu Siyosat bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etishi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qilishi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishi lozim.